

AYOL O'QISA MILLAT O'QIYDI, AYOL O'QISA UMMAT O'QIYDI!



Abstract:

Qiz bolani o'qitish bugungi kundagi dolzARB masalalardan biridir. "Qizimni albatta o'qitaman. U ham mening farzandim axir. Ertaga kimningdir ostonasiga borganda qiyalmaydi", deydigan otanolar bor. Va aksincha: "Qizim o'qib menga nima qilib berar edi. Baribir birovning uyiga ketadi", yoki "Qiz bola uchun eng keragi oila, farzand tarbiyasi, qiz bolani o'qitishning keragi yo'q", deydigan oilalar bor. Xo'sh, qaysi bir fikr to g'ri?

Key words:

Author of the article:

Anorboyeva Yuduz
Jamoliddin qizi

Workspace (Education subject)

O'zDJTU sharq filologiyasi Arab tili
yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Ayol kishi uchun oila, farzand birinchi o'rinda bo'lishi kerak, albatta. Lekin bu ayollar o'qimasligi kerak degani emas. Bir oilada ilmda komil erkak, boshqa bir oilada esa ilmli ayol, qaysi bir oilaning farzandlari ilmli bo'ladi deb o'ylaysiz? Albatta ona ilmli bo'lsa, bola ham ilmli bo'ladi. Farzandlar ko'proq onadan o'rganishadi. Lampochkani ixtiro qilgan Edison mактабда yomon o'qiganligi uchun mактабдан haydaladi. So'ng unga onasi barcha bilimlarni egallashda o'zining ulkan hissasini qo'shami. Edison xotira daftarida shunday yozadi: "Edison g'irt kaltafahm bola edi. Lekin onasining go'zal xizmati sababli noyob iqtidor egasiga aylandi".

Rassom Pablo Picasso ham onasining yozgan she'rlaridan ilhomlanib, mohir rassom bo'lgan. Napoleon Bonapartni ham buyuk qilgan aslida onasi. D.I.Mendeleyev ham boshlang'ich bilimni onasidan olgan. Buyuk bo'lismiga sababchi ham onasi. Bobomiz imom al-Buxoriy ham payg'ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallamga muhabbatli bo'lib tug'ilмаган yoki hadis ilmiga shunchaki qiziqib qolмаган. Onasi uning qalbida shunday muhabbatni uyg'otgan. O'zimdan qiyoq etsam, esimni taniganimdan buyon onamning qo'lida ketmon ko'rganman. Shu sababdan mening ham juda ketmon chopgim kelardi. Rosa xarkasha qilganimdan otam menga kichkinagina ketmoncha qilib bergenlar. Mehnatni sira kanda qilmaydigan, erta-yu kech qo'llarida ketmon bo'lgan onamning yoniga turib, harakatlarini takrorlar edim. Hozir o'qituvchiman, lekin haligacha qayerda o't ko'rsam, ketmon olib chopgim keladi. Chunki yoshligimdan onamning qo'lida ketmon ko'rib mana shu ishga muhabbat uyg'ongan. Lekin men farzandlarimni ketmonga emas, kitobga muhabbatli bo'lismini xohladim. Shuning uchun ham farzandlarimning oldida ko'p kitob o'qishga harakat qilaman.

Aytganimdek, ular ham mening harakatlarimni takrorlashadi. Namoz o'qiganimda o'g'lim va qizim menga qo'shilib namoz o'qiydi. Garchand so'zlarini bilmasa ham qo'shilib harakatlarini birga bajaradi. Qur'on o'qisam oldimga kelib, eshitib yodlab oladi. Gazeta yoki badiiy kitoblar o'qisam, kelib, qiziqib, nima o'qiyotganimni, qanaqa kitob ekanligini, unda nimalar yozilganini so'raydi. Bolalarcha, qisqacha qilib tushuntirib berishga harakat qilaman.

«Development of science» international conference

Farzandining qiziqayotgan sohasi haqida onada ozgina bo'lsa ham ma'lumot bo'lsa, ona uni farzandiga tushuntirib bersa, bola o'zi qiziqayotgan narsa bilan onasining ham shug'ullanayotganini ko'rsa, bolaning o'sha sohaga qiziqishi yana ham ortadi. Onasidan ma'lumot bilan birga kuchquvvat va energiya oladi. Farzand onasidan olgan bilimni shu sohaning buyuk olimi bergen bilimdan ham yaxshiroq tushunadi. Chunki bola onasini o'zgacha mehr bilan tinglaydi. Farzand uchun ko'chadagi insonlar emas, onasining o'qiyotgan kitobi, aytayotgan so'zi va bajarayotgan amali qiziqroq. Chunki farzandlar o'z onasini mukammal deb, bola tilidan aytganda "super" deb o'ylashadi va onasining har bir ishiga qiziqadi. Onasi aytgan so'zni qaytaradi, qilgan ishini bajarib ko'radi. Qisqacha qilib aytganda, otaning egallagan bilimi ko'chaniki, ona o'rgangan ilm farzandnikni.

Oilanning ustuni bo'lgan aziz erkaklar, siz farzandingizni kim bo'lishini xohlaysiz? Shaxmat bo'yicha jahon championimi? Eng avvalo shaxmatni ayolingiz o'rgansin. Bolangizni qaysidir sohada olim bo'lishini xohlaysizmi? Ayolingiz bu bilimni puxta egallasin. Farzandingiz Qur'on yodlashini xohlaysizmi? Ayolingizni qoriya qiling.

"Qizimni o'qitishim shart emas", deydigan ota-onalar, siz qizingizni emas, aslida nabiralarlingizni o'qitasiz! Millatni o'qitasiz! Ummatni o'qitasiz! Davlatning kelajagini o'qitasiz! Shunday ekan, keljak sizning qo'lingizda.